



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 6-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

MUHAMMAD ALI SOBUNIY HAYOTI

Nizomov Fazliddin Baxodirbek O'G'LI

Universitet of economics and pedagogy
Ijtimoiy- gumanitar fanlar kafedrası assistenti

Ahmedova Dilafruz

Universitet of economics and pedagogy

Filologiya fakulteti 1-kurs "filologiya" (ingliz tili) kechki yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mashhur mufasssir, faqih va olim Shayx Muhammad Ali as-Sobuniyning hayoti va ilmiy faoliyatining dastlabki bosqichlari yoritilgan. Uning ilm-ma'rifatga boy oilada voyaga yetgani, Qur'oni Karimni yoshligidan yod olgani hamda shariat ilmlarini egallash yo'lidagi sa'y-harakatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Sobuniyning ta'lim olgan maskanlari, ustozlari va ilmiy shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar haqida ma'lumot beriladi. Maqolada allomaning islomiy ilmlar rivojiga qo'shgan hissasining shakllanish jarayoni tarixiy va ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Muhammad Ali as-Sobuniy, tafsir ilmi, mufasssir, faqih, Qur'oni Karim, Halab shahri, shariat ilmlari, islom olimlari, hadis, arab tili, diniy ta'lim, ilmiy meros, Suriya, islomshunoslik.

Olim, faqih, mufasssir va tarjimon Shayx Muhammad Ali as-Sobuniy 1930-yil 1-yanvarda Suriyaning Halab shahrida tug'ilgan. Uning to'liq ismi Muhammad Ali ibn Jamil as-Sobuniy bo'lib, u ilm va olimlarni hurmat qiladigan oilada ulg'aygan. Otasi Shayx Jamil Sobuniy o'z asrining yetuk olimlaridan biri hisoblangan⁴. Shuningdek, halabdagi katta "Umaviy jome'asida" mas'ul xodim bo'lib ishlagan. Sobuniy yoshligida arab tili va shariat ilmlarini o'z otasidan o'rganadi. Boshlang'ich sinfda o'qib yurgan vaqtlarda Qur'on Karimdan bir necha juz'larni yodlay boshladi, va 14 yoshida Qur'oni karimni to'liq yod oldi. uning akasi Ziyovuddin Sobuniy esa arab tili va nahvshunos olimlardan hisoblanadi. Shuningdek, u o'z davrining yetuk shoirlaridan hamdir.

Sobuniy maktabni tamomlab Halab shahrida joylashgan savdoga ixtisoslashgan o'rta maxsus maktabga o'qishga kiradi. Biroq u yerda o'qishini davom ettira olmadi. Bunga sabab esa, uni savdo-sotiq masalalari ko'p ham qiziqtirmas edi. Shu sababdan maktabni tark etib, shariat kollejiga o'qishga kiradi. Bu joyda shariat ilmlariga qo'shimcha tarzda, fizika, kimyo, geografiya kabi tabiiy fanlarni ham o'zlashtiradi. Sobuniy maktabni 1949-yil a'lo baholarga tamomlaydi⁵.

Sobuniyning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini inobatga olgan holda, "Vaqf vazirligi" tomonidan Qohiradagi "al-Azhar universiteti"ga o'qishga yuboriladi. Sobuniy u yerda ham muvaffaqiyatli ta'lim olib, 1952-yilda ushbu dargohni shariat fakultetini tamomlab, so'ngra 1954-yilda Azharning shar'iy mahkama ixtisosi bo'yicha fan doktori ilmiy darajasiga sazovor bo'ladi. Shundan so'ng, Sobuniy o'z tug'ilgan joyi Halab shahriga qaytib keladi. Keyin esa bu shahardagi madrasalarda ta'lim bera boshlaydi. Olimning dars berish jarayoni 1955-1963-yillar davomida qarib sakkiz yil davom etadi. 1963-yil Suriya talim vazirligi tashabbusi bilan ma'lum kelishuv asosida Saudiya Arabistoni

⁴ <https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=6907> (01.10.2023)

⁵ Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Islom shariatida me'ros ilmi (qur'on va sunnat asosida). – T.: Hilol nashr, 2022. – B. 4.

mamlakatida vaqtincha mudarrislik qilish imtiyozi beriladi⁶. Olimning uylanishi akasidan avval amalga oshadi. Nikoh tuzilishi uchun ustozlaridan biri ham yordam beradi. Shayx Sobuniy o'n yetti yoshida nikohlanadi⁷. Olim Muhammad Ali Sobuniy ko'plab ustozlardan ta'lim oladi. Ulardan eng mashhurlari:

- Qorilar shayxi Muhammad Najib Xayyota.
- Tafsir ilmidan, Shayx Muhammad Zayn al-Obidiyn al-Jazbah.
- Shariat ilmlaridan, Shayx Muhammad Ibrohim as-Salqiniy.
- Nahv ilmidan, Shayx Abdulloh Hammod.
- Ingliz tilidan, Muhammad Subhi ar-Rayhoviy.
- Katta shayxlaridan, Shayx Muhammad Idlibiy.
- Tafsir va Hadis ilmidan Shayx Muhammad Najib Siroj.
- Imom Shofeiynning "al-umm" kitobidan, Abul Fattoh Abu G'udda.
- Hadis ilmidan, Abdulloh Sirojiddin.
- Shayx Ahmad Shammu va boshqa ko'plab olimlardan ilm o'rganadi.

Shayx Sobuniy ushbu ulomlardan shariat, fiqh, aqida, tafsir, mustalahul-hadis usul-fiqh ilmlarini o'rganadi. Keyinchalik Saudiyadagi bir nechta oliygohlarda dars berdi. Shulardan Podsho Abdulazizga qarashli islom oliygohida, "Ummul quro" oliygohining tarix fakultetida va undan boshqa oliy o'quv yurtlarida ham faoliyat yuritadi. Vakolat muddati yigirma sakkiz yilga uzaytirilgan u zotning qo'lidan ko'plab olimlar, imomlari yetishib chiqdi.

Shayx Muhammad Sobuniy shogirdlari:

Shayxning ko'plab, mamlakatlarda tez-tez bo'lishi va bu joylarda shayxning darslariga tashrif buyuruvchilar sonining ko'pligini hisobga olsak, shayxning shogirdlarini sanab yoki ularning sonini aniq aytish imkonsiz. Sabunining birgina Indoneziyada mingdan ortiq shogirdi bor edi. Biroq, Shayxning o'zi uning qo'lida o'n yildan ziyod ta'lim olgan shogirdlarini zikr qilib o'tadi. Ular quyidagilar:

1. Doktor Solih ibn Humayd, Makka shahridagi Masjidi Haram imomi, Saudiya Arabistonidagi "Sho'ro" kengashi rahbari.
2. Doktor Ahmad Al-Hamid: Saudiya Arabistonidagi, "Umm al-Quro" universiteti doktori.
3. Doktor Rashid Al-Rojih, "Umm Al-Qura" universiteti direktori.
4. Doktor Usoma al-Xayyot, "Masjidul Harom" Imomi.
5. Shayxning o'g'li Ahmad Muhammad Ali Sabuniy, u Olimning barcha ishlarida hamrohi.
6. Shayx Sayid Muhammad Alaviy Al-Molikiy: Universitetda shayxdan dars olgan.

Olimning yuksak fazilatlaridan yana biri shunda ediki, ilm tahsili yo'lida bir nafas ham tinim bilmasligidir. Saudiyadagi ko'zga ko'ringan ulamolaridan xam ilm o'rgandi. Ulardan fazilatli Shayx Hasan Mashot, Shayx Muhammad Amin kutubiy kabi zotlar. Makka Mukarramadagi "Ummul quro" jomesidagi yigirma sakkiz yillik ish faoliyati

⁶ Muhammad Ali Sobuniy. Anbiyolar qissasi, Payg'ambarlar tarixi. (tar: Muhiddinov M.). – Toshkent: Sharq, 2021. –B. 4.

⁷ Ibrahim Demir. Muhammed Ali es-Sâbûnî ve tefsir metodu. Yüksek Lisans Tezi (Ank.Ün.ilahiyat Fak. 1996 mezunu) – Ankara, 2000. – S.14.

davomida universitet taklifiga ko'ra Ma'naviy meroslarni qayta o'rganish ilmiy tadqiqot markazida ilmiy tadqiqotchi lavozimida ishlay boshlaydi⁸.

“Ummul Quro” universiteti Sobuniyning ilmiy salohiyatini hisobga olib, unga ba'zi islom me'rosiga tegishli kitoblarni tahlil qilishni ishonib topshiradi.

Sobuniy ilk ilmiy faoliyatini Imom Abu Ja'far an-Naxxosning “Ma'aniy al-Qur'an” asarini tadqiq qilishdan boshlaydi. Ushbu asar islom olamida juda ham mashhur asarlardan hisoblangan va uning faqatgina bittagina nusxasi mavjud edi. Asarni olim besh yilga yaqin o'rganib chiqadi. Nihoyat kibor ulomolardan taqrizlar olinib, asar to'liq tadqiq qilinganidan so'ng, 1988-yil Makka Mukarramadagi “Ummul Quro” universiteti nomidan, mazkur universitet qoshidagi “Ilmiy baxs markazi” hamda “Islomiy merosni tiriltirish” nashriyotlarida asar olti jildda nashr qilinadi⁹. Bu markazda bir muddat faoliyatini yo'lga qo'ygandan so'ng, 1998-yil “Butun dunyo musulmonlar ligasi”ning “Qur'on va sunnatdagi ilmiy mo'jizalar” bo'limida ilmiy xodim sifatida faoliyatini davom ettiradi. Bu yerda Sobuniy o'zining asosiy ilmiy faoliyatini boshlaydi. Shu o'rinda alloma Sobuniyning ilmiy faoliyatiga nazar soladigan bo'lsak, Shayx Sobuniy ilmiy faoliyati davomida ilmiy kitoblar, maqolalar, risolalar yozishda bo'ladimi, yoki ma'ruzalar qilishda, katta doiradagi anjumanlarda chiqish qilishda bo'ladimi doim serg'ayrat, peshqadam bo'lib kelgan. Ko'plab, televedeniya, radio eshittirishlarda suhbatlar olib boradi, katta konferentsiyalarda chiqishlar qiladi. Uzoq vaqt “Robitatul Islamiyya” kengashida faoliyat korsatib keladi. Shu bilan birga Makka Mukarramadagi Masjidul haromda ikki kunlik fatvo darsi, shuningdek, Jidda masjidlarida ikki haftalik tafsir darslarini ham olib boradi. Ba'zi masjidlardagi halqalar soni olti yuzdan ortiq holatda o'tkazilardi. Ayrim kanallarda masjidlardagi tafsir darslari televideniya orqali to'ridan-tog'ri uzatilardi. Qirq yildan buyon Makka Mukarramadagi Masjidul Haromda har yili ramazonda o'qiladigan tarovih namozilagi imom qiroatini tekshiruvchi mas'ul shaxslardan biri bo'lib ishlab keladi. So'ngi vaqtlarda sog'liqlari yomonlashganligi sabab bu mas'uliyatni topshirishga majbur bo'ladi.

Shayx Muhammad Aliy Sobuniy “Masjidul Harom” imomi deb ham e'tirof etilgan. Ko'p vaqt Masjidul Haromda musulmonlarga imomlikka ham o'tib bergan. Masjidul harom imomlaridan Shayx Solih ibn Abdulloh ibn Humayd o'zining “Masjidul Harom imomlari tarixi” nomli kitobida Muhammad Ali Sobuniyni ham qayd qilib o'tganlar. Shuningdek olim har oyda Ka'baning ruknul yamaniy nomli burchagida ikki kunlik ilm majlisi tashkil qilib boradi. Ushbu majlis uzoq vaqt davom etardi. Majlisda Kur'oni Karimni yodlash fazilati, undagi oyatlarning daqiq ma'nolarini tushuntirib dars halqalari olib boradi. Bu ishda unga shogirdlari shayx doktor Muhammad To'xir Nurulvaliy ko'makchilik qilgan. Yana ortgan vaqtlarini shar'iy masalalar bo'yicha fatvo so'rovchi shogirdlariga ajratardilar. Majlislari doim ilm, zikr majlisi bo'lib o'tadi. Shogirdlari hadis, fiqh kitoblarni shayx Sobuniyga o'qib berar, shu bilan xatolarini To'g'rilab olardilar. Ko'pincha ushbu majlislar shom nomozidan oldin boshlanib, xufton

⁸ Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Islom shariatida me'ros ilmi (qur'on va sunnat asosida). – T.: Hilol nashr, 2022. –B. 6.

⁹ Muhammad Ali Sobuniy. Anbiyolar qissasi, Payg'ambarlar tarixi. (tar: Muhiddinov M.). – Toshkent: Sharq, 2021. –B. 5.

nomozining oxirgi vaqtlarigacha ba'zi paytlari bomdod nomozining tugash vaqtigacha cho'zilar edi.

Shayx yoshlarga alohida e'tibor qaratib, doim ularga yuzlanib gapirar, nasixat qilar, ilm yo'lida g'ayrat qilishga, din yo'lida xizmatga chorlardi. Shu sababdan ham oliygohlarda uzoq vaqt dars berishdan charchamaganlar.

Sobuniy universitetda talabalarga dars berish va o'z ilmiy faoliyati bilan birgalikda Jidda shahridagi masjidlarda fatvo berishni ham yo'lga qo'yadi. Sakkiz yil davomida u talabalarga Qur'oni Karimning uchdan ikki qismini lentalariga yozib beradi. Shuningdek, Saudiya Arabistoni telekanallarida Qur'oni Karim tafsiriga oid 600 dan ziyod ko'rsatuvli videolayhalar ham tayyorlaydi. Ushbu ishlarni amalga oshirishga tahminan ikki yil vaqt ketadi. Nihoyat 1999-yilga kelib bu ish ham oxiriga yetkaziladi.

Sobuniy ko'plab ilmiy konferensiya va anjumanlarda ishtirok etgan. Ulardan eng muhimi 2007-yil Birlashgan arab amirliklarining dubay shahrida o'tkazilgan "Dubay Xalqaro Qur'on mukofoti"ning tashkiliy qo'mitasi, shayx Muhammad Sobuniyni "Yilning nufuzli musulmon shaxsi" mukofot bilan taqdirladi¹⁰.

Bunday mukofotga munosib bo'lish uchun talab qilinadigan ma'lum me'yorlarga javob berishi kerak bo'ladi. Ular: qur'on, sunnat va barcha shar'iy ilmlar borasida yetuk ilmga ega bo'lishi, yozgan asarlari elliktadan ortiq bo'lishi, hamma asarlari ilmi toliblar, butun musulmonlar uchun foydali muhim manba bo'lib xizmat qilishi kerak. Shayx Muhammad Aliy Sobuniy hazratlari ham quyidagi talablarga to'la javob bergan holda mukofotki munosib deb topildi. Bunday mukofotga munosib ko'ringan mashhur allomalardan: Shayx mufassir Muhammad Mutavalli Sha'roviy, shayx Muhammad G'azzoliy, Alloma shayx Yusuf Qarazoviy, va boshqa islom olamidagi allomalar ham ushbu mukofotga munosib ko'rilgan.

Saudiya Arabistoni davlatida har yili ilm fan va madaniyatga bag'ishlangan katta nufuzli tadbir bo'lib o'tadi. Tadbirda ilm fan, madaniyat va adabiyotga qo'shgan hissasi uchun olimlarni taqdirlash marosimi bo'lib o'tadi, Ali Sobuniy hazratlari ham 1989-yili mazkur nufuzli tadbir tarafidan munosib taqdirlangan. Har yili o'tkaziladigan bu nufuzli tadbirda Saudiya Arabiston Mamlakatidagi kibar olimlar, adiblar va davlatga katta xizmati singan mashhur shaxslarga munosib taqdirlanib boriladi. Shayx Sobuniy hazratlari ham ushbu sharafiga munosib ko'rilgani munosabati bilan katta olimlar, mashhur shaxslar tarafidan tabriklar bildirildi. Jumladan, Anjumanning tashkiliy qo'mitasi rahbari shayx Sobuniyni e'tirof etib shunday so'zlarni aytgan: "Muhammad Ali as-Sobuniy Qur'on ilmi, tafsir ilmi, va shariat ilmlarida asrimizning eng ko'zga ko'ringan xos olimlaridan biridir."

Arab adiblaridan biri Abu Turob Zohiriy Sobuniy haqidagi iliq fikrlarini quyidagi satrlarda keltirib o'tadi:

Muhammad Ali Sobuniy tengsiz iqtidor va bayon sohibi, haq gap gapiruvchi, fahmi o'tkir, osorlar bilan tafsir bitguvchidir.

Shayx Muhammad Ali Sobuniy o'zining teran fikrlarini o'rtoqlashishdan qizg'onmas, muttasil izlanishdan charchamasdilar. Islomiy fikrlari, tasirli ma'ruzalari, nutqlari bilan doim din yo'lida kamarbasta turadi. Boshqa allomalarga nisbatan haq gapni

¹⁰ Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Islom shariatida me'ros ilmi (qur'on va sunnat asosida). – T.: Hilol nashr, 2022. –B. 7.

aytishga jur'atligi bilan ham ajralib turadi. Nufuzli siyosat arboblari maslahat, yo'l yo'riq ko'rsatishdan hayqimas, xatiblik borasida obro'si baland edi. Xalq agar biror narsadan jabr ko'rsa, yoki biror ijtimoiy muammoga duch kelsalar hokimlarga qattiq dadil topshiriqlar berishdan tortinmasdi¹¹. Mana shunday harakati tufayli har-xil ta'ziqlarga uchradi. Uzoq vaqt o'z yurti Suriyaga kirishdan mahrum qilindi. Lekin bularning hech biri uni haq gapni aytishdan to'sa olgani yo'q. Turkiyadagi hayoti ham yaxshi kecha boshladi. Shayx Sobuniy Turkiya xalqini sevishi hech kimga sir emas. Go'yo Turkiyani o'z vatanidek sevib ardoqlardi.

Turkiya hukumati tarafidan unga Turkiya fuqaroligi ham berildi. Turkiya xalqi va ulamolarini eslaganda boshqacha tilga olardi. U yerdagi hamkasblari bilan doim mustahkam aloqada bo'ladi. Jumladan alloma shayx Mahmud usta Usmon o'g'li shayx Muhammad Afandi, mashhur muhaddis Fotix universiteti mudarrisi shayx Muhammed Amin Siroj, Azxari sharif universiteti mudarrisi shayx Zumayl va boshqa Turkiyaning kibar allomalari bilan doim aloqada bo'ladi.

Alloma uzoq yillik ilmiy faoliyatlari davomida qirqqa yaqin asarlar ta'lif etgan. Mazkur asarlari ilmi toliblar, ulamolar o'rtasida munosib qabul qilingan. Aksar kitoblari turk, ingliz, fors o'zbek va boshqa ko'plab boshqa tillarga tarjima qilingan. Sababi u zotning asarlari chuqur ilmiyligi, iboralarining soddaligi bilan boshqa ulamolarning kitoblaridan ajralib turadi. Muallif ba'zi asarlarini oliygohda mudarrislik davrida, boshqalarini esa undan keying davrlarda ta'lif qilgan. Olim Sobuniy tafsir sohasida ham bir nechta kitoblar ta'lif qilgan bo'lib, barchasi keng ma'noli, ilmiy ruhda bo'lishi bilan birga, tolibi ilmlar balki butun dunyo musulmonlariga birdek manzur bo'lgan. Aksar asarlarini yozishda ortiqcha uzaytirib yuborishidan qochib, soddalikka suyanaganlar.

Muhammad Ali Sobuniyning "Ravoilul bayon" nomli asari "O'zbekiston Musulmonlari Idorasi" tasarrufidagi oliy va o'rta maxsus islom bilim yurtlarida dasrluk sifatida o'qitib kelinmoqda. Bundan tashqari "Sofvatut tafosiyr" (Tafsirlar sarasi), "Al-mavaris fish shari'atil-islamiyyah" (Islom shari'atida meroslar), "As-sunnatun nabaviyya qismun minal vahyil-munazzal" (Sunnati nabaviyya – Ilohiy vahiyning bir qismi), "Harokatul arzi va davronuha– haqiqotun ilmiyyatun asbatahal Qur'on" (Yer harakati va aylanishi – Qur'on isbot qilgan ilmiy haqiqatlar) va boshqa ko'plab kitob va maqolalar muallifidir¹².

Shayx Sabuniyning vaqt taqsimoti: Shayx Sabuniy vaqtining ko'p qismini o'qish va yozish bilan o'tkazar edi. U hatto oilasini kamdan-kam ko'radi. Shuning uchun ham ayoli bir kecha unga yarim hazil, yarim jiddiy tarzda aytadiki: "Agar mening uchta sherigim bo'lganida (ya'ni erimning mendan boshqa uchta xotini) bu kitoblardek menga og'ir bo'lmas edi"¹³. Qur'on takrorlash uchun ajratgan vaqti esa havas qilsa arziydi. Vaqti-vaqti bilan kunning ikki vaqtida takrorlaydi. U buni Masjidul Haromda qiladi. Bu vaqtlarning birinchisi bomdod namozidan keyindir. Ikkinchisi esa kechqurun va tun o'rtasida. Birinchisini o'zining sobiq hofiz shogirdlaridan biri bilan, ikkinchisida esa

¹¹ Ibrahim Demir. Muhammed Ali es-Sabûnî ve tefsir metodu. Yüksek Lisans Tezi (Ank.Ün.ilahiyat Fak. 1996 mezuu) – Ankara, 2000. – S.15.

¹² <http://www.muslim.uz/index.php/rukn/quran/item/2489-muhammad-ali-sobuniy> (03.04.2022)

¹³ G'brahim Demgr. Muhammed Alg es-Sabûnî ve tefsgr metodu. Yüksek Lisans Tezi (Ank.Ün.Glahiyat Fak. 1996 mezuu) – Ankara: 2000. –S. 17.

olimning do'sti bilan amalga oshiradi. U o'z kundalik takrorlarini xech ham tark qilmaydi, agar favqulodda biron bir ish chiqib qolmasa.

Shayx mufassir Muhammad Ali as-Sobuniy milodiy 2021-yil 19-mart juma kuni to'qson bir yoshida Turkiyaning shimolida joylashgan Yalo'vo shahrida vafot etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, shayx Sobuniy shaxsiyati hozirgi zamon islom olamida alohida ahamiyatga egadir. Buni olimning hayoti davomida turli-xil islom ilmlari bilan shug'ullanib, ilmiy faoliyat yuritganidan ham ko'rishimiz mumkin. Bu esa, uning serqirra olim ekanligiga dalolat beradi.

Ayniqsa, u yozib qoldirgan asarlar hozirgi davr islom dunyosida juda muhim, ilmiy asoslarga ega manbalardan hisoblanadi. Sobuniy asarlaridagi ilmiy yondashuv va tilning soddaligi ularning ahamiyatini yanada oshiradi. Shunday qilib, hozirgi davr islomshunoslik sohasida Muhammad Ali Sobuniy hayoti, ilmiy faoliyati va u yozgan asarlarni kengroq o'rganish soha faoliyati rivojida o'ziga xos dolzarblikni ifoda etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom shariatida me'ros ilmi (qur'on va sunnat asosida). – T.: Hilol nashr, 2022. – B. 4.
2. Muhammad Ali Sobuniy. Anbiyolar qissasi, Payg'ambarlar tarixi. (tar: Muhiddinov M.). – Toshkent: Sharq, 2021. –B. 4.
3. Ibrahim Demir. Muhammed Ali es-Sabûnî ve tefsir metodu. Yüksek Lisans Tezi (Ank.Ün.ilahiyat Fak. 1996 mezunu) – Ankara, 2000. – S.15.